STAGES OF DESIGNING A MODEL FOR THE DEVELOPMENT OF THE REFLEXIVE POSITION OF FUTURE TEACHERS

Qarshiyeva Zulfiya Shukurovna
Teachers of Samarkand region to new methodologies
senior lecturer at the National Center for teaching.p.f.f.d (PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.7677488

Annotation: This article analyzes the systematic, axiological, personal-activity and reflexive approaches to the process of professional training of their future teachers. It is justified that the design of the model for the development of the reflexive position of the future teacher is carried out according to the algorithm.

Keyword: Reflexive, position, model, modeling, component, principle, approach, localization, adaptation, axiological, result.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING REFLEKSIV POZITSIYASINI RIVOJLANTIRISH MODELINI LOYIHALASH BOSQICHLARI

Qarshiyeva Zulfiya Shukurovna
Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga
o‘rgatish milliy markazi katta o‘qituvchisi.p.f.f.d (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi jarayoni tizimli, aksiologik, shaxsiy-faoliyaga doir va refleksiv yondashuvlar tahlil qilingan. Bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish modelini loyihalashtirish algoritmga muvofiq amalga oshirilishi asoslab berilgan.

Kalit so‘z: Refleksiv, pozitsiya, model, modellashtirish, komponent, tamoyil, yondashuv, loyixalashtirish, uygunlashtirish, aksiologik, natija.

Bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish jarayonini biz oliy ta‘limga qo‘shimcha, ammo shu bilan birga mustaqil bo‘g ‘in sifatida kiritilgan tizim sifatida ko‘rib chiqamiz. Bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish modelini loyihalashtirishda biz tizimli tahlil tamoyiliga asoslandik: har qanday ob’ektni hosil qilish maqsadni aniqlash va rivojlantirish bilan boshlanadi. Maqsadni aniqlash loyihalashtirishda muhim jihat hisoblanadi, chunki maqsad – bu boshqa komponentlarga nisbatan yo‘naltiruvchi asosdir. [1]

Maqsad shuningdek, tizim komponentlari mazmunining ishlab chiqilishida asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. U rivojlanish va yaratish o‘rtasidagi bog‘liqlikni, biz intilayotgan natijani aniq tushunishni taqozo etadi.

A.V.Zelentsova o‘z tadqiqotida shaxsiy tajribani shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim mazmunining komponenti sifatida talqin qiladi va tarkib o‘rganilayotgan predmet materiallari bilan belgilanmaganligini, balki o‘quv jarayoni sub’ektlarining shaxsiy rivojlanishining ichki anglanishi bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi. [3]

Bunday tajribani o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari tushunchalar, tasavvurlar, usullar, operatsiyalar, harakatlarni bajarish qoidalari, emotsional kodlardan (stereotiplar, shaxsiy fikrlar, ustanovkalar) iborat.

N.Ya.Saygushning fikricha, sub’ektiv tajriba shaxsiy faollikni amalga oshirishni ta’minlaydigan shartdir, deb hisoblaydi. Sub’ekt ushbu faollikni mustaqil ravishda rivojlantiradi, tashkil etadi va nazorat qiladi. [2]

I.S.Yakimanskaya ta‘limdagi sub’ektiv tamoyilini taklif etgan. Ushbu tamoyil shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim jarayonining mazmuniga qo‘yiladigan quyidagi didaktik talablar orqali amalga oshiriladi: o‘quv materialining mazmuni orqali o‘quvchining predmetli tajribasi mazmunini aniqlashni ta’minlash, o‘qituvchining avvalgi o‘quv tajribasini hisobga olish; bilimlarni uning ko‘lamini kengaytirishga, strukturalashga, integratsiyalashga, predmetli mazmunni umumlashtirishga, har bir o‘qituvchining shaxsiy tajribasini o‘zgartirishga yordam beradigan usullar bilan bayon qilish; o‘qituvchining tajribasini berilayotgan bilimlarning ilmiy mazmuni bilan tizimli ravishda muvofiqlashtirish; o‘qituvchi mustaqil ta‘lim olishga, o‘z ustida ishlashiga, o‘z fikrini bildirishga qo‘llab-quvvatlovchi ta‘limiy faoliyatni o‘zi tomonidan baholashga undash; o‘quv materialini o‘qituvchining topshiriqlarni bajarish, o‘quv vazifalarini yechish orqali tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladigan tarzda tashkil etish; o‘qituvchilarni o‘quv materialini ishlab chiqishning eng muhim usullarini mustaqil tanlash va ulardan foydalanishga undash; ularning shaxsiy rivojlanishidagi funktsiyalarini hisobga olgan holda o‘quv ishlarining umummantiqiy va maxsus predmetli usullarini ajratib ko‘rsatish; o‘quv jarayoni

(o‘qituvchilar tomonidan o‘quv materialini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshirilgan umumlashmalar) va uning natijasini nazorat qilish va baholashni ta’minlash. [1]

Shunday qilib, kasbiy tayyorgarlik jarayonida bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish modelini yaratish uchun biz maqsadni, natijani aniqlaymiz va asoslaymiz, natijaga erishish vositalarini (mazmuni, metodlari, usullari, vositalari, ushbu jarayonni tashkil etish) ko‘rib chiqamiz.

Yuqoridagi jihatlar bilan bog‘liq holda biz bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish modelining quyidagi bloklarini aniqlashtirdik: **maqsadli,**

nazariy-metodologik, mazmunli-jarayonli va natijaviy, ularning har biri komponentlarni o‘z ichiga oladi.

Maqsadli blok. Modelni yaratish maqsadi o‘rganilayotgan jarayonning tuzilmasini tavsiflash, modelning maqsadi esa refleksiv pozitsiyani rivojlantirishdir.

Model mazmuni va uning komponentlarining o‘zaro aloqasi maqsad bilan, ya’ni bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish bilan belgilanadi. Refleksiv pozitsiyaning rivojlanganligi deganda, biz uning barcha komponentlarining (motivatsion-qadriyatli, kognitiv va faoliyatli) tarkib topganligini tushunamiz.

Bo‘lajak o‘qituvchida refleksiv pozitsiyasini rivojlanganligini baholash mezonlari va darajalarini natijaviy blokda aniqlashtiramiz.

Refleksiv, tizimli, aksiologik, shaxsiy-faoliyatli yondashuvlar kasbiy tayyorgarlik jarayonining metodologik asosi hisoblanib, uning asosida refleksiv pozitsiya rivojlanadi. [4]

Bo‘lajak o‘qituvchining taqdim etilayotgan modeldagi refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish jarayonini amalga oshirish mexanizmi bu refleksiv, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, loyihalash, modulli dasturlar texnologiyasi, interfaol o‘qitish metodlaridan foydalanish asosida tashkil etilgan kasbiy tayyorgarligi hisoblanadi.

Ushbu metod va texnologiyalar refleksiv va shaxsiy faoliyatli yondashuv qoidalariga mos keladi, kasbiy tayyorgarlikda foydalanish uchun sinovdan o‘tgan va bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z shaxsiy qobiliyatlari va ehtiyojlarini anglashga, ular o‘rtasidagi bog‘liqlik ularning tashqi ifodalari bilan, ongli kasbiy “Men kontseptsiya”si shaklida belgilanadi.

Refleksiv pozitsiya shaxsiy tajribaga asoslangan va faoliyatda namoyon bo‘ladigan shaxsga oid munosabatlar tizimidir, shuning uchun kasbiy tayyorgarlik jarayoni tizim sifatida ko‘rib chiqiladigan va bo‘lajak o‘qituvchiga shaxsiy tajribani pedagogik tayyorgarlik jarayonida iloji boricha to‘liqroq namoyish etish imkonini beradigan bir-birini to‘ldiruvchi metodologik yondashuvlar majmuiga asoslangan bo‘lishi kerak. [1]

Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi jarayonida refleksiv, tizimli, aksiologik, shaxsiy-faoliyatli yondashuvlardan foydalanishni eng muhim, deb hisoblaymiz, chunki ularning har birining o‘ziga xos xususiyatlari yig‘indisi bo‘lajak pedagogning refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi jarayonida refleksiv, tizimli, aksiologik, shaxsiy-faoliyatli yondashuvlardan foydalanishni eng muhim, deb hisoblaymiz, chunki ularning har birining o‘ziga xos xususiyatlari yig‘indisi bo‘lajak pedagogning refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Refleksiv yondashuv quyidagi xususiyatlari bilan tadqiqot maqsadiga erishish uchun juda muhimdir: refleksiv yondashuv, bir tomondan, o‘rganilayotgan voqelikning predmetli ko‘rilishini ta’minlasa, boshqa tomondan, uni muayyan

maqsadlarga erishish va amaliy vazifalarni hal qilish uchun texnologik jihatdan o‘zlashtirishga hamda ma’lum bir faoliyat orqali o‘zgartirishga imkon beradi; refleksiv yondashuv refleksiya kabi voqelikni o‘rganishni ta’minlaydi va bu borada olingan bilimlarni kasbiy tayyorgarlik amaliyotida ishlatish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi; refleksiv yondashuv – bu refleksiyaga va amalga oshirilgan jihatlar tahliliga asoslangan, ya’ni nimaga ega bo‘lganligi (bilim, tajriba), va qanday natijaga erishilganligini taqqoslash, shuningdek, ushbu natijaning shaxs uchun ahamiyatini hisobga oladigan yondashuvdir; refleksiya haqidagi falsafiy, psixologik, pedagogik tasavvurlarni fundamental kategoriya sifatida o‘zida mujassam etgan zamonaviy ilm-fanning metodologik yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, refleksiv yondashuv insonning o‘zini, uning ichki dunyosini va boshqalar bilan munosabatlarda o‘z o‘rnini bilish kabi tug‘ma qobiliyatiga yo‘naltirilgandir; faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun individual ongning mavjudligi va uni shaxs tomonidan faol ravishda qayta ko‘rib chiqish; bajarayotgan faoliyatiga nisbatan “tashqi” pozitsiyani egallash va kelgusi faoliyat rejasini keyinchalik loyihalashtirish orqali natijani tahlil qilish imkoniyati; boshqa odamning fikrlari, hissiyotlari va harakatlarini o‘rganish va tushunish; refleksiv jarayonlarni faoliyatdan ajralmagan holda ko‘rib chiqish; sodir etilayotgan voqelikka insonning shaxsiy baholovchi munosabatini rivojlantirish; individning axloqiy sifatlarini rivojlantirish, boyitish va mustahkamlash, uning qadriyatlarga ongli munosabati; barcha komponentlarni belgilaydigan va uning barcha natijalari uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladigan faoliyat markazi sifatida o‘ziga nisbatan ichki motivatsion ongli munosabati; umuman shaxsning rivojlanishiga va uning olam bilan munosabatlariga ta’sir ko‘rsatishi orqali o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini tarbiyalash uchun sharoitlarni ta’minlash; sabab-natija aloqasining o‘rnatilishi bilan chuqur va to‘laqonli tahlilni o‘tkazish uchun ortga nazar solish va turli xil pozitsiyalarni egallashga imkon beradigan o‘z-o‘zini anglash mexanizmining mavjudligi. [5]

Yuqorida keltirilgan yondashuvlarning har birini tanlash sababini ularning mohiyati va xususiyatlarini tahlil qilish orqali asoslab beramiz.

Refleksiv yondashuv quyidagi xususiyatlari bilan tadqiqotimizning maqsadiga erishish uchun juda muhimdir: refleksiv yondashuv, bir tomondan, o‘rganilayotgan voqelikning predmetli ko‘rilishini ta'minlasa, boshqa tomondan, uni muayyan maqsadlarga erishish va amaliy vazifalarni hal qilish uchun texnologik jihatdan o‘zlashtirishga hamda ma'lum bir faoliyat orqali o‘zgartirishga imkon beradi; refleksiv yondashuv refleksiya kabi voqelikni o‘rganishni ta’minlaydi va bu borada olingan bilimlarni kasbiy tayyorgarlik amaliyotida ishlatish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi; refleksiv yondashuv – bu refleksiyaga va amalga oshirilgan jihatlar tahliliga asoslangan, ya’ni nimaga ega bo‘lganligi (bilim, tajriba), va qanday natijaga erishilganligini taqqoslash, shuningdek, ushbu natijaning shaxs uchun ahamiyatini

hisobga oladigan yondashuvdir; refleksiya haqidagi falsafiy, psixologik, pedagogik tasavvurlarni fundamental kategoriya sifatida o‘zida mujassam etgan zamonaviy ilm-fanning metodologik yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, refleksiv yondashuv insonning o‘zini, uning ichki dunyosini va boshqalar bilan munosabatlarda o‘z o‘rnini bilish kabi tug'ma qobiliyatiga yo‘naltirilgandir; faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun individual ongning mavjudligi va uni shaxs tomonidan faol ravishda qayta ko‘rib chiqish; bajarayotgan faoliyatiga nisbatan “tashqi” pozitsiyani egallash va kelgusi faoliyat rejasini keyinchalik loyihalashtirish orqali natijani tahlil qilish imkoniyati; boshqa odamning fikrlari, hissiyotlari va harakatlarini o‘rganish va tushunish; refleksiv jarayonlarni faoliyatdan ajralmagan holda ko‘rib chiqish; sodir etilayotgan voqelikka insonning shaxsiy baholovchi munosabatini rivojlantirish; individning axloqiy sifatlarini rivojlantirish, boyitish va mustahkamlash, uning qadriyatlarga ongli munosabati; barcha komponentlarni belgilaydigan va uning barcha natijalari uchun mas'uliyatni o‘z zimmasiga oladigan faoliyat markazi sifatida o‘ziga nisbatan ichki motivatsion ongli munosabati; umuman shaxsning rivojlanishiga va uning olam bilan munosabatlariga ta'sir ko‘rsatishi orqali o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini tarbiyalash uchun sharoitlarni ta'minlash; sabab-natija aloqasining o‘rnatilishi bilan chuqur va to‘laqonli tahlilni o‘tkazish uchun ortga nazar solish va turli xil pozitsiyalarni egallashga imkon beradigan o‘z-o‘zini anglash mexanizmining mavjudligi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish modelini ishlab chiqish uchun biz tizimli yondashuvdan foydalandik, bunda o‘zida metodologik vositalar majmuasini o‘zida aks etuvchi tizimli yondashuv uning vositasi bo‘lib xizmat qilib, ulardan murakkab tizimlarni o‘rganish va ularni modellar ko‘rinishida taqdim etish uchun foydalaniladi.

Tizimli yondashuv har qanday tizimni uch bosqichda loyihalashni nazarda tutadi

Birinchi bosqichda tizim tahlil qilinadi. Tadqiqot ob’ektini o‘rganish amalga oshiriladi, uning natijasi ko‘rib chiqilayotgan jarayonning kognitiv modeli hisoblanadi. Ushbu bosqich faoliyatining mazmuni tizimni alohida ajratib olish; faoliyatiga yangicha qiyofa baxsh etadigan maqsad va vazifalarni aniqlashtirish; tizimni komponentlar majmui sifatida taqdim etish, shuningdek, komponentlarning har birini va ular o‘rtasidagi aloqadorlikni tekshirishdan iborat. [5]

Ikkinchi bosqichda modelni sintez qilish amalga oshiriladi, uning mohiyati uslubiy qoidalarni tanlashdan iborat bo‘lib, buning natijasida modelni loyihalashtirish jarayoni umumlashadi va yaxlit ko‘rinish kasb etadi.

Shuningdek, mazkur bosqichning yana bir jihati alohida komponentlarning xususiy modellarini hosil qilish, ularning o‘zaro aloqalarini hosil qilish va ketma-ket tarzda loyihalashtirilayotgan jarayonning yaxlit modeliga o‘tishdan iboratdir. Bosqich yakunida jarayon modeli aniqlanadi.

Uchinchi bosqichda modelning tizimga muvofiqligi tekshiriladi. Ushbu jarayon modelni ishlab chiqishning barcha bosqichlarida amalga oshiriladi. Bosqichning maqsadi – model va o‘rganilayotgan tizimning muvofiqligini ta'minlashdan iborat bo‘lib, u ko‘rib chiqilayotgan jarayonning samarali faoliyatini belgilangan sharoitda tavsiflashning aniqligiga erishish uchun zarurdir.

Tadqiqotimizda ushbu bosqichda biz majmaviy pedagogik shart-sharoitlarni amalga oshirgan holda ishlab chiqilgan modelni tajribada sinovdan o‘tkazdik.

Bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish modelini loyihalashtirish quyidagi algoritmga muvofiq amalga oshirildi:

1) modellashtirilayotgan tizim doirasini aniqlash;

2) modelni loyihalashtirish maqsadini belgilash, loyihalanayotgan jarayonning maqsad va vazifalari bilan uyg'unligini ta'minlash;

3) ko‘rib chiqilayotgan jarayon sub'ektlarini aniqlash;

4) bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish jarayoni amalga oshiriladigan tamoyillarni asoslash;

5) bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirishning mazmuni, metodi va vositalarini aniqlash;

6) ushbu modelni amalga oshirish orqali erishiladigan natijani rejalashtirish, uning diagnostik texnologiyasi va vositalarini asoslash;

7) loyihalashtirilgan modelni maqsadiga erishish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni ishlab chiqish. [6]

Modellashtirilayotgan tizim chegaralarini tanlash tartibi uning ob’ekti va predmetini tanlashga tenglashtiriladi. Bizning tadqiqotimizda bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish modellashtirish ob’ekti bo‘lib, ushbu jarayon modeli esa, predmeti bo‘lib xizmat qildi.

Bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Biz har bir bosqichni refleksiv pozitsiyani tarkibiy qismlari xususiyatlari bilan tavsiflaymiz. Ishning birinchi bosqichi refleksiv pozitsiyaning shakllanmagan darajasiga to‘g‘ri keladi, ikkinchi bosqich qisman shakllangan, uchinchisi esa shakllangan darajaga erishishdir.

Bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasi darajalarining mezonlarini belgilab, biz refleksiv pozitsiya – bu shaxsning faoliyatda namoyon bo‘ladigan ongli munosabati ekanligiga tayanamiz.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak o‘qituvchining o‘ziga, pedagogik munosabat ishtirokchilariga, “o‘qituvchilik” kasbiga, pedagogika faniga ongli munosabati qay darajada shakllanganligi; uning o‘quv-kasbiy faoliyati qanchalik mustaqil, ichki motivatsiyaga ega ekanligini ko‘rib chiqish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Якиманская И.С. Разработка технологии личностно-ориентированного обучения // Вопросы психологии. – 1995. – № 2. – С. 31-41.

2.Сайгушев Н.Я. Рефлексивное управление профессиональным становлением будущего учителя: монография. – М.: ИНФРА-М. 2017. – 279

3. Зеленцова А.В. Личностный опыт в структуре содержания образования: дис. … канд. пед. наук. – Волгоград, 1996. – 187 с.

4. Рефлексивный подход: от методологии к практике: коллект. Монография. / под ред. В.Е. Лепского. – М.: «Когито-Центр», 2009. – 447 с.

5. Qarshiyeva Z.Sh. Bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish. Uslubiy qo‘llanma.Samarqand davlat chet tillar instituti - 2021-75 bet.

6. Qarshiyeva Z.Sh A model for developing future teacher’s reflexive position // European Journal of Research Development and Sustainability (EJRDS) – Ispaniya, 2020. – No.4. – P.99-101.